
TOSHLOQ TUMANIDA OILAVIY BOLALAR UYI TARBIYALANUVCHISIGA DAVLATIMIZ RAHBARINING SOVG'ASI – XONADON KALITI TOPSHIRILDI

Davlatimiz rahbari tomonidan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, qo'llab-quvvatlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

“Sadda” MFY, A.Navoiy ko'chasidagi ko'p kvartirali uyda joylashgan xonadonlarning biri oilaviy bolalar uyi tarbiyalanuvchisi Ziyodaxon Akramovaga tuhfa etilgani ham ana shunday e'tibor namunasi bo'ldi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, tuman “Nuroni” jamg'armasi raisi O'rmonjon Karimov hamda mahalla faollari ishtirok etdi.

O'z navbatida Ziyodaxon Akramova mehmonlar bilan muloqotda Prezidentimizga cheksiz minnatdorchilik bildirdi va kelajakda el-yurtga sadoqat bilan xizmat qiladigan inson bo'lishini ta'kidladi.

2023-12-09 13:36:08